XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

Kengash raisi, +998 70 214 7590, Bekobod shahar,G'.G'ulom ko'chasi 1-uy

2025-yil 30-dekabr VII-22-109-10-149-K/25 Bekobod shahar

Bekobod shahrining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son qonuni, Xalq deputatlari Toshkent viloyat kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1132-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Bekobod shahar kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq Bekobod shahar mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari 108 419 630,0 ming so‘m, xarajatlari 108 419 630,0 ming so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Bekobod shahar byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **503 576 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar mahalliy byudjetidan 2026-yilda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 475 161,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga;

- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga;

- yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari 5-ilovaga;

- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari 6-ilovaga;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 7-ilovaga;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 8-ilovaga;

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar 9-ilovaga;

- 2026-yilda shaharlar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Safarov shahar Soliq inspeksiyasi

(F.Mamatqulov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari shahar kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

- o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

- byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

- tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

- o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

- byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini ta’minlash shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Safarov, nazorati Xalq deputatlari shahar kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Abdunazarov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **BABAYEV NASRULLA NURILLAYEVICH**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	Ming so‘m
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	8 433 800,0
2	Foyda solig‘i	5 501 590,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	8 262 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 603 840,0
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i	2 554 000,0
6	Aksiz solig‘i jami	14 070 000,0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0,0*
	pivo	*0,0*
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*14 070 000,0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 767 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 615 000,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 972 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 981 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	169 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	11 194 000,0
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0,0
14	Davlat boji	3 519 680,0
15	Yig‘imlar	205 520,0
16	Jarimalar	5 452 200,0
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	119 000,0
	JAMI	**108 419 630,0**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

Bekobod shahar mahalliy byudjetidan 2026-yilda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Tashkilot nomi	Ming so‘m
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	28 674 807,0
	shu jumladan :	
1.1	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	17 066 719,0
1.2	Umumta’lim maktablari	3 841 507,0
1.3	"Mening maktabim"	1 050 600,0
1.4	Barkamol avlod bolalar maktabi	1 782 201,0
1.5	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi (Ma’muriyat)	4 933 780,0
2	Bolalar musiqa va san’at maktablari	9 911 353,0
3	Madaniyat bo‘limi	1 627 388,0
4	Axborot-kutubxona markazi	789 050,0
5	Sport maktabi	7 002 199,0
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	18 981 471,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	825 666,0
8	Yoshlar ishlari agentligi	2 857 433,0
9	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 437 131,0
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 469 628,0
11	Shahar hokimligi	33 065 769,0
	shu jumladan :	
11.1	Shahar hokimligi	11 152 306,0
11.2	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	276 033,0
11.3	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	20 162 269,0
11.4	Zaxira jamg‘armasi	1 475 161,0
12	Mahallalar uyushmasi "Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	777 735,0
	Xarajatlar - jami	**108 419 630,0**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

Shahar mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Soliq va ajratmalar		**Ajratma me’yori**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	MRI	0%
	DSB	20%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	MRI	0%
	DSB	18%
Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	MRI	100%
	DSB	100%
Foyda solig‘i	MRI	0%
	DSB	29%
Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	MRI	0%
	DSB	0%
Pivo	MRI	0%
	DSB	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	MRI	0%
	DSB	100%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	MRI	0%
	DSB	100%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	MRI	0%

	DSB	100%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	MRI	100%
	DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	MRI	100%
	DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	MRI	0%
	DSB	0%
Aylanmadan soliq		100%
Davlat boji		32%
Jarima		60%
Yig‘imlar		28%

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun2026-yilda belgilangan koeffitsientlar miqdorlari

T/r	MFYlar nomi	**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** (turar joylar uchun belgilangan o‘sish myoridan oshmagan holda)		**Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun** (noturar obyektlar uchun)	
		Shahar deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsiyent	**Soliq stavkasi**	**Shahar deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsiyent**	**Soliq stavkasi**
1	Al-Xorazmiy MFY	1,20	658,56	1,30	7917,00
2	Andijon MFY	1,20	658,56	1,30	7917,00
3	Birdamlik MFY	1,20	658,56	1,20	7308,00
4	Bobur MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
5	Bog'ishamol MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
6	Buloqariq MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
7	Bunyodkor MFY	0,80	439,04	0,85	5176,50
8	Do'stlik MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
9	Farg'ona MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
10	Farhod MFY	1,05	576,24	1,05	6394,50
11	Jomiy MFY	0,85	466,48	0,85	5176,50

12	Q.Farmonov MFY	1,10	603,68	1,20	7308,00
13	Ma‘rifat MFY	1,21	664,05	1,21	7368,90
14	Madaniyat MFY	1,05	576,24	1,05	6394,50
15	Metallurg MFY	1,20	658,56	1,30	7917,00
16	Muqumiy MFY	1,21	664,05	1,21	7368,90
17	Mustaqillik MFY	1,10	603,68	1,15	7003,50
18	Navro‘z MFY	1,03	565,26	1,03	6272,70
19	Nurliyo‘l MFY	1,30	713,44	1,35	8221,50
20	O‘zbekiston MFY	1,30	713,44	1,35	8221,50
21	Obodturmush MFY	1,20	658,56	1,21	7368,90
22	Paxtakor MFY	1,20	658,56	1,20	7308,00
23	Samarqand MFY	1,25	686,00	1,25	7612,50
24	Sayxun MFY	1,15	631,12	1,15	7003,50
25	Sementchi MFY	1,01	554,29	1,01	6150,90
26	Shirin MFY	1,20	658,56	1,20	7308,00
27	Sirdaryo MFY	1,20	658,56	1,30	7917,00
28	Taraqqiyot MFY	1,10	603,68	1,15	7003,50
29	Tinchlik MFY	1,20	658,56	1,25	7612,50
30	Turkiston MFY	1,20	658,56	1,25	7612,50
31	H.Olimjon MFY	1,20	658,56	1,20	7308,00
32	Yangihayot MFY	1,10	603,68	1,10	6699,00
33	Yoshlik MFY	1,20	658,56	1,20	7308,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1	Bekabod shahar	1,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	**200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan**	**500 kv.m dan ortiq bo‘lgan**	**Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari**	**Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari**
1	Bekabod shahar	1,10	1,10	1,15	1,10	1,00

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi**)**

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Bekabod shahar	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Tuman va shaharlarnomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar,	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)

		gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin						
1	Bekabod shahar	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,25	1,30

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Bekabod shahar	1.00	1.00

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-22-109-10-149-K/25 -son
qaroriga
10-ilova

2026-yilda shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar bo‘yicha	2026-yil (ming so‘m)
1	Bekobod shahri	503 576,0